

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№2

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026 fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 490 sahifa.
2026-yil, fevral

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILYI MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA‘MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o‘g‘li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO‘YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG‘URTA FAOLIYATIDAGI MOLIYAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBİ: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJİY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJRIBASI	66
Alimardonov G‘ayratjon Nuraliyevich	
XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o‘g‘li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA‘MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
RAQAMLI MOLIVA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI	117
Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li	
GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI	123
Abdirazakov Akmal Ibragimovich Namozov Og'abek Maxmud o'g'li	
AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS	128
Utkirova Maftuna Murodjon qizi	
O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI	134
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI	139
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY JIHLTLARI	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	150
Akramov Akbarjon Akmal ugli	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI	156
Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR	160
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI	165
Yakubov Temur G'anibekovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI	169
Siroj Zarina Rustambekovna	
AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING YAIM VA BANDLIKKA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	176
Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Ziyodullayev Qahramon	
ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИИ	185
Хамдамова Гавхар Абсаматовна	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIVAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	191
Mamatov Baxodir Quldoshovich	



KO'P QIRRALI VALLARNING SHAKLLANTIRISH METODLARI VA USULLARINI TAHLIL QILISH	197
<i>Xasanov Bobirmirzo Maxmudali o'g'li, Valixonov Dostonbek Azim o'g'li, Alibekov Rasulbek Qanotbek o'g'li</i>	
MINTAQA SANOATINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	205
<i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	209
<i>Nomozova Qumri Isoyevna</i>	
XALQARO STANDARTLAR TALABLARI ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	216
<i>Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li</i>	
QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHNI TARTIBGA SOLISH TIZIMI	221
<i>Achilova Firuza Kurbanovna</i>	
BANK MENEJMENTIDA INKLYUZIV MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, TAMOYILLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI	225
<i>Rajabov Oybek Panjievich</i>	
MINTAQADA OLIY TA'LIM TIZIMINING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	229
<i>Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li</i>	
MAISHIY XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION KLASTER MODELINI JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	235
<i>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI BOSHQARISH	240
<i>Xatamov Nurbek Ochildiyevich, Sharifi Abdul Fatah</i>	
MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNING AMALDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI YECHIMI YUZASIDAN TAKLIFLAR	245
<i>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</i>	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIK RISKLARINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	251
<i>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	257
<i>Karimov Shohrux Boydulla o'g'li</i>	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATINING HISOBOTLARINI XALQARO STANDARTLARGA TRANSFORMATSIYA QILISH	262
<i>Astanov Zafar Murodillayevich</i>	
QARAMA-QARSHI AYLANUVCHI IKKI ROTORLI SHAMOL TURBINASINING MATEMATIK MODEL	266
<i>Pirmatov Nurali Berdiyevich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Saodullayev Abror Saypullayevich, Qurbonov Najmiddin Abduxamidovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTIONAL VA INVESTITSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	272
<i>Norboev Sarvar Azodovich</i>	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY AHAMIYATI	277
<i>Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li</i>	
ANALYSIS OF UZBEKISTAN'S MAIN ECONOMIC INDICATORS AND GDP GROWTH	283
<i>B.Beknazarov</i>	



SOTISH JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA MARKETING TADQIQOTLARINING INTEGRATSIIYASI	288
Abdusalilova Laylo Tohtasinovna	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В АУДИТЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ И УЗБЕКСКИЙ КОНТЕКСТ	294
Мегноров Алмардон Абдирахмонович	
RISK MANAGEMENT STRATEGIES IN UNCERTAIN ECONOMIC ENVIRONMENTS: A GLOBAL COMPARATIVE STUDY	302
Nigmatova Malika	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	307
Hamrayev Maqsudjon Saidaxmadovich	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH MASALALARI	311
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi	
АВТОМАТИЗАЦИЯ АУДИТОРСКИХ ПРОЦЕДУР НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ: ВЛИЯНИЕ НА КАЧЕСТВО АУДИТОРСКИХ ЗАКЛЮЧЕНИЙ	316
Киличева Ф.Б.	
MAISHIY TEXNIKA EKSPORTIDA YASHIL IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	320
Kushmanova Mahbuba	
GAZ TA'MINOTIDA YO'QOTISHLARNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI	324
Xamidov Xayriddin Faxritdinovich	
DAVLAT AKTIVLARINI XUSUSIYLASHTIRISHNING MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA).....	329
Sharapov Farrux Shomuratovich	
КРИТЕРИИ ОТБРАКОВКИ ЭКСТРУЗИОННЫХ АЛЮМИНИЕВЫХ ПРОФИЛЕЙ ГРУППЫ ALMGS1 ПО МАКРОСТРУКТУРНЫМ ПРИЗНАКАМ В ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ УСЛОВИЯХ	333
Ибрахимов Фаррухжон Фарходович	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DEBITORLIK QARZLARI VA FAKTORING OPERATSIYALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	336
G'oziyeva Mokhira Rustamovna	
KULTIVATOR YUMSHATKICH PANJALARI O'TMASLANISH DARAJASINING ISH KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	345
Quvondiqov Yoqub Tursunbaevich, Nuraliyev To'liqin Alimardanovich	
SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION STRATEGIYANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR	352
To'g'onov Ibroximxo'ja	
TMK KORXONASI SHAROITIDA R6AM5 MARKALI TEZKESAR PO'LATDAN TAYYORLANGAN PARMA UCHUN TERMIK ISHLOV BERISH REJIMI	358
Djalalova Sevara Toxtamuratovna	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	362
Шоев Алим Халмуратович	
TRANSFORMATSIYA VA XUSUSIYLASHTIRISH OMILLARINING BANK SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	367
Umirzoqova Aziza Olim qizi	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	372
Ismatov Raxmatilla Oltinovich	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA.....	376
Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li	



BANK TIZIMIDAGI AKTIVLARINING UNUMDORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA STRATEGIK YONDASHUVLAR	379
Sadikov Q.M.	
СЦЕНАРНОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ НЕОПРЕДЕЛЁННОСТИ И СТРУКТУРНЫХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	383
Муслимова Ф.С., Хашимова Н.А.	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMATLARNI TAQDIM QILISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	390
S.M. Raximova	
YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MODELI	395
Qurbanova Muazzam Fazliddinovna	
IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSIYALASHUVI JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING TAHLILI	399
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISH MASALALARI	404
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING INNOVATSION FAOLIYATINI INVESTITSIYALAR YORDAMIDA QO'LLAB-QUVVATLASH	408
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
FRANSUZ TILIDA FE'L SEMANTIKASINING KO'PMA'NOLILIK VA BIRMA'NOLILIK ASPEKTLARI	412
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Bekmetova Munisa Karimbayevna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARDA CHET-EL INVESTISIYASI VA KREDITLARINI ROLI	418
Sultanov Anvar Abdullaevich	
INSON QON TOMIRLARINING TARMOQLANISHINI L-SISTEMALAR ASOSIDA HOSIL QILISH ALGORITMNI ISHLAB CHIQUV	423
Boliyeva Dilrabo Nurbek qizi	
YASHIL IQTISODIYOT LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH)NING AHAMIYATI	429
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI	434
Otaylor Usmonaliyev	
TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA ARBITRAJI VA UNING MOHIYATI	440
Yaxyayev Ziyodilla Lutfullayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	443
Mirzaraximova Aziza Azimdjanovna	
DON VA UN MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI	450
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TUXUM ISHLAB CHIQUVISHNING JORIY HOLATI TAHLILI	454
Ismoilov Zuhridin Sayitqulovich	
ZAMONAVIY TURAR-JOY ME'MORCHILIGIDA MILLIYLIK VA AN'ANAVIYLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI	459
Toshniyozov Otabek Hakimovich	
MARKAZIY QIZILQUM FOSFORIT RUDALARIDAN QIMMATBAHO KOMPONENTLARNI KOMPLEKS AJRATISH TEXNOLOGIYASI	464
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Ruzibayeva Dildora Akramovna, Xushvaqtova Dilshoda Shavkat qizi	



BANKLARDA CHAKANA KREDITLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH TARTIBI	470
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING XALQARO MODELLARI HAMDA ULARNING AMALIY AHAMIYATI	476
Nodirbek Shavkatovich Mirzaaxmedov	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA XOTIN-QIZLARNING BOSHQARUV KARYERASI: MOHIYATI, ZARURIYATI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	483
Abduraxmonova Feruzabonu	



DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA XOTIN-QIZLARNING BOSHQARUV KARYERASI: MOHIYATI, ZARURIYATI VA ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI

Abduraxmonova Feruzabonu

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

[ORCID: 0009-0003-8755-8575](https://orcid.org/0009-0003-8755-8575)

Email: feruzbonu199120@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi globallashuv va institutsional transformatsiyalar sharoitida davlat boshqaruvi sifatini oshirish, barqaror rivojlanish hamda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mustahkamlashda inson kapitalidan samarali foydalanish hal qiluvchi omil bo'lib bormoqda. Ushbu jarayonda xotin-qizlar jamiyatning yirik ijtimoiy-demografik qatlami sifatida nafaqat iqtisodiy, balki boshqaruv resursi sifatida ham strategik ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ko'plab mamlakatlarda xotin-qizlarning qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki yetarli darajada ta'minlanmagani, ularning rahbarlik lavozimlariga ko'tarilishi institutsional to'siqlar, stereotiplar hamda imkoniyatlar tengsizligi bilan cheklanishi kuzatiladi. Bu holat davlat boshqaruvi tizimida inklyuzivlikning susayishi, ijtimoiy adolat tamoyillarining zaiflashuvi va boshqaruv qarorlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Maqolada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Gender tenglik va xotin-qizlar huquqlarini kengaytirish bo'yicha tuzilmasi (UN Women) hamda Parlamentlararo ittifoq (Inter-Parliamentary Union, IPU) ma'lumotlari asosida 2025–2026-yillardagi global ko'rsatkichlar tahlil qilinadi, shuningdek, O'zbekiston misolida davlat fuqarolik xizmatida gender tenglikni kuchaytirishga qaratilgan normativ-huquqiy baza va institutsional mexanizmlar yoritiladi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda “mahalla–tuman–viloyat–respublika” tizimida kompetensiyaga asoslangan seleksiya, prognozlash–rejalashtirish va monitoring–baholash tizimini metodik asosda integratsiyalash bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: davlat fuqarolik xizmati, gender tenglik, kadrlar zaxirasi, xotin-qizlar boshqaruv karyerasi, institutsional mexanizm, kvotalar, monitoring va baholash, kompetensiya modeli.

Abstract. In the context of today's globalization and institutional transformations, improving the quality of public administration, ensuring sustainable development, and strengthening socio-political stability increasingly depend on the effective utilization of human capital as a decisive factor. Within this process, women—being a major socio-demographic group—acquire strategic importance not only as an economic resource but also as a governance resource. At the same time, in many countries, women's participation in decision-making processes remains insufficiently ensured, and their advancement to leadership positions is often constrained by institutional barriers, persistent stereotypes, and unequal opportunities. This situation may lead to a decline in inclusiveness within the public administration system, weaken the principles of social justice, and adversely affect the quality of governance decisions.

This article analyzes global indicators for 2025–2026 based on data from the United Nations Entity for Gender Equality and the Empowerment of Women (UN Women) and the Inter-Parliamentary Union (IPU). It also highlights—using Uzbekistan as a case study—the regulatory and legal framework and institutional mechanisms aimed at strengthening gender equality in the civil service, including target indicators under Presidential Decrees PF-95 and PF-78, as well as the development of talent pools, professional development programs, and the “Women Leaders” track.

Based on the research findings, the article proposes integrating, on a unified methodological basis, a competency-based selection system, forecasting and planning tools, and monitoring and evaluation mechanisms across the “mahalla–district–region–republic” governance structure.

Keywords: civil service; gender equality; talent pool; women's management career; institutional mechanism; quotas; monitoring and evaluation; competency model.

Аннотация. В условиях современной глобализации и институциональных трансформаций повышение качества государственного управления, обеспечение устойчивого развития и укрепление общественно-политической стабильности всё в большей степени зависят от эффективного использования человеческого капитала как решающего фактора. В данном процессе женщины, являясь крупной социально-демографической группой, приобретают стратегическое значение не только как экономический ресурс, но и как управленческий ресурс. Вместе с тем во многих странах участие женщин в процессах принятия решений по-прежнему обеспечивается недостаточно, а их продвижение на руководящие должности ограничивается институциональными барьерами, устойчивыми стереотипами и неравенством возможностей. Подобная ситуация может приводить к снижению инклюзивности в системе государственного управления, ослаблению принципов социальной справедливости и негативному влиянию на качество управленческих решений.

В статье на основе данных Структуры Организации Объединённых Наций по вопросам гендерного равенства и расширения прав и возможностей женщин (UN Women) и Межпарламентского союза (Inter-Parliamentary Union, IPU) анализируются глобальные показатели за 2025–2026 годы. Также на примере Узбекистана раскрываются нормативно-правовая база и институциональные механизмы, направленные на усиление гендерного равенства в государственной гражданской службе, включая целевые показатели в рамках указов Президента PF-95 и PF-78, формирование кадрового резерва, системы повышения квалификации и направления «Женщины-руководители».

На основе результатов исследования предлагаются меры по интеграции на единой методической основе в системе «махалла–район–область–республика» компетентностно-ориентированной селекции, инструментов прогнозирования и планирования, а также механизмов мониторинга и оценки.

Ключевые слова: государственная гражданская служба; гендерное равенство; кадровый резерв; управленческая карьера женщин; институциональный механизм; квоты; мониторинг и оценка; модель компетенций.

KIRISH

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Gender tenglik va xotin-qizlar huquqlarini kengaytirish bo'yicha tuzilmasining ma'lumotlariga ko'ra, davlat boshqaruvi tizimida inklyuzivlik darajasining oshishi boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilashi, ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashi va ijtimoiy ishonchni kuchaytirishi mumkin. Shu bilan birga, ko'plab mamlakatlarda xotin-qizlarning qaror qabul qilish jarayonlaridagi ulushi yetarli darajada ta'minlanmagani, ularning rahbarlik lavozimlariga ko'tarilishi institutsional to'siqlar, gender stereotiplari va imkoniyatlar tengsizligi bilan cheklanishi kuzatiladi.

O'zbekiston sharoitida "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot paradigmasi doirasida xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish hamda rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish bo'yicha tub islohotlar jadallashmoqda. Mazkur maqola global tendensiyalar fonida O'zbekistonda xotin-qizlarning boshqaruv karyerasini rivojlantirish, qaror qabul qilish jarayonlariga ishtirokini yanada oshirishning normativ-huquqiy va institutsional mexanizmlarini tahlil qiladi hamda amaliy takliflar ishlab chiqadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xotin-qizlarning davlat boshqaruvi va siyosiy qaror qabul qilishdagi ishtiroki masalasi Markaziy Osiyo va turkiy-movaraunnahr tarixiy tajribasida turli davrlarda turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'lgan. Qadimgi tarixiy narrativlarda ayol rahbar obrazi, avvalo, siyosiy suverenitetni himoya qilish va strategik qaror qabul qilish bilan bog'lanadi. Bu jihat To'maris timsolida yaqqol ko'rinadi: antik tarixchi Gerodot "Tarix" asarida To'marisni Massagetlar malikasi sifatida tasvirlab, u olib borgan siyosiy pozitsiya va yakuniy qarorlarni (tashqi bosqinga munosabat, qat'iy ogohlantirish, harbiy qaror) rivoyat qiladi. Manbada To'marisning Kirga qarata "qonxo'rlik" bilan bog'liq ogohlantirish va ramziy jazo haqidagi mashhur epizod keltiriladi; bu epizod ayol rahbarning siyosiy legitimligi faqat "mavqe" bilan emas, balki real qaror va natija bilan asoslanishini ko'rsatadi.

O'rta asrlarda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki ko'proq saroy protokoli, legitimlik ramzlari va ijtimoiy infratuzilmani shakllantirish (bunyodkorlik, vaqf, madrasalar, masjidlar) bilan bog'liq holda ko'rinadi. Temuriylar davri kontekstida Saroyulkxonim obrazi shunday "institutsional" rolning muhim namunasi. Ispan elchisi Ruy Gonzales de Klavixo Temur saroy marosimlarini bayon etar ekan, "bosh xotin" maqomini alohida urg'u bilan tasvirlaydi. Bu ma'lumot Saroyulkxonimning saroy va davlat ramziy tizimidagi o'rni yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Shu mantiqda temuriylar davridagi xotin-qizlar ta'siri faqat marosim yoki maqom bilan cheklanmay, "public works" (jamoat infratuzilmasi) orqali ham namoyon bo'lganini Gavharshodbegim misolida kuzatish mumkin. Ensiklopedik manbalarda u me'moriy-bunyodkorlik loyihalari (masjid-madrasa majmualari)ni rejalashtirish va qurdirish faoliyatiga bevosita bog'lanadi.



Qo'qon xonligi doirasida Nodirabegim (Mohlaroyim Nodira) nafaqat adabiyot vakili, balki davlat ishlari va ijtimoiy loyihalarda faolligi bilan tilga olinadi. Biografik manbalarda Umarxon vafotidan so'ng u xonlik boshqaruvida o'g'li bilan birga ishtirok etgani hamda madrasalar, masjidlar va karvonsaroylar bunyodiga boshqosh bo'lgani qayd etiladi.

Bu ma'lumotlar xotin-qizlarning davlat boshqaruvida barqarorlikni saqlash, ijtimoiy infratuzilma (ma'rifat va xizmatlar)ni rivojlantirishda faol ishtirok etganini yaqqol namoyon etadi.

Mazkur tarixiy tajriba zamonaviy davlat fuqarolik xizmatida xotin-qizlarning boshqaruv karyerasini shakllantirish masalasiga metodologik asos beradi, ya'ni xotin-qizlar liderligi tarixan turli institutsional ko'rinishlarda mavjud bo'lgan va u bugun kompetensiya, merit, teng imkoniyat hamda institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali tizimli rivojlanmoqda.

Uzoq tarixdan boshlab davlat boshqaruvida real hokimiyatni amalga oshirgan yoki de-fakto siyosiy qarorlarni belgilagan mashhur ayol liderlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Jumladan, miloddan avvalgi I asrda yashagan Kleopatra VII Ptolemeylar sulolasining so'nggi faol hukmdori bo'lib, davlat boshqaruvida legitimlikni saqlash va tashqi siyosiy ittifoqlar orqali suverenitetni himoya qilishga intilgan. Uning siyosiy strategiyasi imperiyalararo kuchlar muvozanatida (Rim ichki kurashlari fonida) Misr manfaatlarini ilgari surish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

VI asrda Vizantiyada yashagan Teodora imperator Justinian I ning hamkori sifatida saroy va davlat siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan, diniy hamda ijtimoiy siyosat yo'nalishlarida faol pozitsiya tutgan kuchli siyosiy figura sifatida qayd etiladi va u ayollar huquqlariga doir yondashuvlarni qo'llab-quvvatlagani bilan ham tilga olinadi.

XVI–XVII asrlarda Elizaveta I hukmronligi davri Angliyaning yirik Yevropa kuchi sifatida siyosat, savdo va madaniyatda keskin faollashgan bosqich sifatida tavsiflanadi. Uning boshqaruvi davlat boshqaruvi institutsionallashuvi va tashqi siyosatdagi qat'iylik bilan bog'lanib, "davlat manfaatlarini"ni markaziy tamoyil darajasiga ko'targan.

Uzoq tarix bilan uzviy ravishda hozirgi davrda dunyo siyosatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan 1979–1990-yillarda Buyuk Britaniya bosh vaziri bo'lgan Margaret Thatcher, 2005–2021-yillarda Germaniya kansleri bo'lgan Angela Merkel, Hindistonning birinchi ayol bosh vaziri bo'lib, 1966–1977 va 1980–1984-yillarda hukumatni boshqargan Indira Gandi, Isroil davlati tashkil topishi jarayonida faol siyosiy ishtirok etgan va keyinchalik 1969–1974-yillarda mamlakat bosh vaziri bo'lgan Golda Meir, 2006–2018-yillarda Liberiya prezidenti bo'lib, Afrika qit'asida saylov orqali hokimiyatga kelgan birinchi ayol davlat rahbari Ellen Johnson Sirleaf singari va boshqa ko'plab dunyoning turli nuqtalaridan bo'lgan siyosiy lider ayollarni misol keltirish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida rasmiy statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari kontent-tahlil asosida o'rganildi. Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar o'rtasida so'rovnoma va yarim tuzilmaviy intervyular o'tkazildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda deskriptiv-statistik usullar orqali umumlashtirildi va ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Birlashgan Millatlar Tashkilotining Gender tenglik va xotin-qizlar huquqlarini kengaytirish bo'yicha tuzilmasi (UN Women) jamlagan ma'lumotlarga ko'ra, hozirga qadar 25 mamlakatda 28 nafar ayol davlat va hukumat rahbari sifatida faoliyat yuritgan, eng yuqori hokimiyat pog'onalarida gender tenglikka hozirgi sur'at saqlansa, taxminan 130 yil talab etilishi qayd etiladi, shuningdek, siyosat yo'nalishini boshqarayotgan vazirlar (portfel rahbarlari) tarkibida ayollar ulushi 22,9% bo'lib, atigi 9 ta davlatda ushbu ko'rsatkich 50% va undan yuqori¹ ekanini ko'rsatiladi.

Parlamentlararo ittifoq (IPU) Parline ma'lumotlarida 2026-yil 1-yanvar holatidagi global o'rtacha ko'rsatkichlariga ko'ra (1-rasm):

- quyi/yagona palatalarda ayollar ulushi — 27,4%;
- yuqori palatalarda — 27,8%;
- barcha palatalar bo'yicha — 27,5%.²

1 <https://www.unwomen.org/en/digital-library/publications/2025/03/women-in-politics-map-2025>

2 https://data.ipu.org/women-averages/?date_year=2026&date_month=01



1-rasm. Parlamentlararo ittifoqda ayollar ulushi (2026-yil 1-yanvar holatida)

UN Women tahlillarida (145 mamlakat ma'lumoti) mahalliy deliberativ organlarda ayollar ulushi o'rtacha 35,5 % ekani, 2 ta davlat 50 %ga erishgani va 26 ta davlat 40 %dan oshgani qayd etiladi. Shuningdek, qonun bilan belgilangan nomzodlar kvotasi mavjud mamlakatlarda ayollar vakilligi kvotasiz mamlakatlarga nisbatan parlamentlarda o'rtacha +5 foiz punkt, mahalliy boshqaruvda esa +7 foiz punkt yuqoriroq ekani ta'kidlanadi.³

Mamlakatimizning siyosiy maydonida ham xotin-qizlar nafaqat faol ishtirokchi, balki yetakchi sifatida ham maydonga chiqmoqda, mavjud vazirlik va idoralarda xotin-qizlar ulushiga oid tahlillar quydagilarni tashkil etadi:

2024-yil oktabr oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining deputatlik o'rinlari uchun o'tkazilgan so'ngi saylov natijalariga ko'ra ayollar ulushi 39,19% (150 deputatdan)⁴ tashkil etgan bo'lsa Oliy Majlis Senatidagi senator ayollar ulushi 27,1% (59 a'zodan 16 nafari)⁵ iborat tarkibda saylandi.

Xotin-qizlarimiz ayni paytda tadbirkorlikda 45 foiz, siyosiy partiyalarda 49 foiz va oliy ta'limda 54 foizni, STEAM yo'nalishida 38 foizni tashkil etmoqda.

Qurilish sohasida – 8 foiz, transportda – 12,6 foiz, axborot va aloqa sohasida – 35,3 foiz, moliya va sug'urta faoliyatida – 37,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 43,3 foiz, savdo sohasida – 49,3 foiz, sanoatda – 46,9 foiz, yashash va ovqatlanish xizmatlari sohasida – 50,7 foiz ayollarni tashkil etmoqda.

2025-yilda xotin-qizlar nisbatan kam faoliyat yuritayotgan Energetika, Qishloq xo'jaligi va Suv xo'jaligi vazirliklarining 2030-yilga qadar gender strategiyalari tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-78-son Farmoniga muvofiq, Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida 6 oygacha bo'lgan muddatda tashabbuskor ayollarning rahbarlik ko'nikmalarini rivojlantirish va ularni davlat xizmatiga tayyorlash uchun "Rahbar ayollar" dasturi joriy etilgan.

"Hokimlikka tayyorlash maktabi" qo'shma ta'lim dasturida 14 nafar xotin-qiz Germaniya davlatiga maxsus o'quv stajirovkaga yuborilgan.

Davlat xizmatchilarining siyosiy-huquqiy bilimlarini oshirish bo'yicha qisqa muddatli kurslarda 95 273 nafar davlat xizmatchisi ishtirok etib, ularning 21 foizini xotin-qizlar tashkil etgan.

Bugungi kunda davlat ulushi mavjud bo'lgan jami 2 026 ta korxonadan 365 tasida kuzatuv kengashi va 1 944 ta kuzatuv kengashi a'zolik o'rinlari mavjud bo'lib, ularda 130 nafar (6,7 foiz) xotin-qiz faoliyat olib bormoqda.

"El-yurt umidi" jamg'armasi orqali nufuzli xorijiy universitetlarda ta'lim olayotgan 764 nafar stipendiatning 266 nafari xotin-qizni tashkil etgan.

Jamg'armaning 2025-yilgi 1-ochiq stipendiya tanlovida 173 nafar nomzod "El-yurt umidi" stipendiyasi sovrindori deb topildi, shundan 43 nafari xotin-qizlar tashkil etgan.

3 <https://social.desa.un.org/sdn/facts-and-figures-womens-leadership-and-political-participation>

4 <https://parliament.gov.uz/deputies>

5 <https://senat.uz/oz/senators>



Tashkilotlarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash bo'yicha maslahat kengashlari soni 4 000 taga yetkazilgan.⁶

Bu ko'rsatkichlar yurtimizda nafaqat davlat fuqarolik xizmatida, balki barcha sohalarida sezilarli o'zgarishlardan dalolat beradi va "ayollar bazasi" kengayib borayotganini, biroq yuqori boshqaruv bo'g'inlarida "shisha shift" (glass ceiling) effektini yumshatish uchun aniq institutsional choralar zarurligini anglatadi.

O'zbekistonda gender tenglik va himoya mexanizmlarining huquqiy bazasi quyidagi fundamental hujjatlar bilan mustahkamlangan bo'lib, 2025-yilning o'zida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va gender tengligini ta'minlashga qaratilgan 1 ta Qonun, 1 ta Senat qarori, Prezidentning 2 ta Farmoni, 3 ta qarori, 9 ta Hukumat qarori, jami 17 ta normativ-huquqiy hujjat⁷ qabul qilingan.

Shu bilan bir qatorda xotin-qizlarning davlat fuqarolik xizmatining yuqori turuvchi rahbarlik lavozimlariga maqsadli tayyorlashga qaratilgan maxsus tizimlarni yo'lga qo'yishga, maqsadli ko'rsatkichlar, dastur va loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlar quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi "Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo'naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-95-son⁷ Farmoni bilan 2030-yilgacha davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish strategiyasida gender tenglik bo'yicha aniq maqsadli indikatorlar keltirilgan bo'lib, unga muvofiq davlat fuqarolik xizmatida xotin-qizlar ulushini 40 %ga yetkazish, milliy kadrlar zaxirasida xotin-qizlar ulushini 40 %ga yetkazish, ayollar uchun moslashuvchan/masofaviy ish rejimlarini sinovdan o'tkazish va kengaytirish, xotin-qizlar uchun maxsus interaktiv onlayn ta'lim dasturlarini joriy etish tasdiqlangan.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi "Istiqbolli kadrlarni maqsadli tayyorlash hamda ularni davlat boshqaruvi va xizmatiga samarali jalb etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-78-son⁸ Farmoni bilan istiqbolli boshqaruv kadrlarini tayyorlash, ularning salohiyatini oshirish hamda kadrlar tayyorlash institutlarini transformatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan. Farmon doirasida xotin-qizlar masalalarini hisobga olishning institutsional asosi sifatida Akademiya Vasiylik kengashi tarkibiga Bosh vazir o'rinbosari – Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi kiritilgan bo'lib, bu kadrlar siyosati va ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish jarayonlarida gender kun tartibini integratsiya qilish uchun boshqaruv darajasida koordinatsion imkoniyat yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mavjud ma'lumotlar O'zbekistonda xotin-qizlarning ta'lim, siyosiy faollik va tadbirkorlik sohalarida tobora mustahkam o'rin egallab borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, boshqaruvning yuqori pog'onalarida, jumladan, kuzatuv kengashlari kabi strategik institutlarda vakillikni yanada kengaytirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjud.

Shu nuqtayi nazardan, ilmiy-amaliy yo'nalishda quyidagi rivojlantirish istiqbollari ajratib ko'rsatiladi:

1. Ehtiyojni prognozlash va rejalashtirish: "Gender HR-forecast" moduli orqali har bir vazirlik va idorada 3 yillik kadrlar ehtiyoji prognozi gender kesimida shakllantirilib, rahbarlik lavozimlari bo'yicha "karyera xaritasi" (succession planning) bilan bog'lanadi va natijada rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash yoki saralash jarayonida ayollar koeffitsiyenti ortadi, karyera o'sishi tezlashadi.

2. "Mahalla–tuman–viloyat–respublika" tizimi orqali kompetensiyaga asoslangan seleksiya qilishni yo'lga qo'yish orqali quyi bo'g'inlarda (mahalla/tuman)gi salohiyatli xotin-qizlar bazasi yaratilib, viloyat va respublika darajasidagi zaxiraga o'tish uchun yagona kompetensiya modeli bo'yicha baholanadi.

3. Xotin-qizlar uchun moslashuvchan, masofaviy ish rejimlarini yo'lga qo'yish orqali ularning oiladagi o'rni bilan bir qatorda faoliyatidagi natijadorligi saqlanib qoladi. Ayniqsa, O'zbekistonda raqamli hukumat tizimi yo'lga qo'yilib, barcha hujjatlar elektronlashtirilganligi rahbar lavozimi uchun stereotip sifatida shakllanib qolgan eskicha ishdan keyin o'tirib ishlash singari to'siqlarni olib tashlaydi.

Davlat fuqarolik xizmatida xotin-qizlar ulushi o'sayotgan bo'lsa-da, eng yuqori siyosiy-boshqaruv pog'onalarida gender tengsizlik hanuz uzoq istiqbol ekanini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari gender tenglikni "indikatorlashtirgan" bo'lsa, keyingi bosqichda ushbu indikatorlarni prognozlash–seleksiya–ta'lim–monitoringning yagona metodik konturiga integratsiya qilish, ularning karyera modelini yaratish ilmiy-amaliy vazifa sifatida dolzarbligicha qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Herodotus. The History of Herodotus. Transl. by G. C. Macaulay. — London: Macmillan, 1890. — Book I ("Clio"), Ch. 205–214

6 <https://gov.uz/oz/wcu/news/view/129004>

7 <https://lex.uz/uz/docs/-7587464>

8 <https://lex.uz/docs/-7520315>



2. Ruy Gonzalez de Clavijo. Narrative of the Embassy of Ruy Gonzalez de Clavijo to the Court of Timour at Samarcand, A.D. 1403–6. — London: Printed for the Hakluyt Society, 1859. — P. 128
3. O'zbekiston Respublikasi Hukumati partali // gov.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati rasmiy sahifasi // senat.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchili palatasi rasmiy sahifasi // parlament.uz
6. O'zbekiston qonunchiligi rasmiy sahifasi // lex.uz
7. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Gender tenglik va xotin-qizlar huquqlarini kengaytirish bo'yicha tuzilmasi rasmiy sahifasi // unwomen.org

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100